

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14883835>

1-SINF ONA TILI DARSЛИGIDA OT MAVZUSINING O'QITILISHI

Shonazarova Ruxshona

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
Boshlang‘ich ta’lim fakulteti Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 2-kurs talabasi

M.A.Hamrayev

Ilmiy rahbar: Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti
Boshlang‘ich fakulteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

E-mail: m.a.hamrayev@gmail.com

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada 1-sinf o‘quvchilarga ot so‘z turkumini o‘qitish metodikasi yoritilgan. Mavzuni tushuntirishda real hayotiy misollar, interfaol metodlar orqali o‘quvchilarning mavzuni oson o‘zlashtirishni ta’minlaydi.*

***Kalit so‘zlar:** Ot so‘z turkumi, boshlang‘ich ta’lim, o‘yinli dars, nutq rivoji.*

***Аннотация:** В данной статье изложена методика преподавания части речи «существительное» для учащихся первого класса. Для объяснения темы используются реальные жизненные примеры и интерактивные методы, что обеспечивает легкость усвоения материала учениками.*

***Ключевые слова:** Часть речи существительное, начальное образование, игровой урок, развитие речи.*

***Annotation:** This article describes the method of teaching nouns to 1st grade students. Real-life examples and interactive methods help students learn the subject easily.*

***Key words:** Noun phrase, primary education, game lesson, speech development.*

Boshlang‘ich sinflarda ot so‘z turkumi juda ham muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga bu mavzuni oddiy va tushunarli usullar bilan yetkazish zarur. Chunki ot so‘z turkumini o‘zlashtirish orqali o‘quvchilarning nutqi rivojlanadi, atrofidagi narsalarni to‘g‘ri nomlashni o‘rganadi. Maktabga endigina qadam qo‘ygan o‘quvchilar uchun bu mavzuni tushunish oson emas. Chunki ular hali til qoidalarini to‘liq anglab yetmagan, ammo real hayotdagi buyumlar, insonlar va hayvon nomlarini yaxshi tushunishadi. Boshlang‘ich sinflarda, ayniqsa 1-sinflarda ot so‘z turkumini o‘qitish muhim bosqichdir. Chunki o‘quvchilar tilni endigina o‘zlashtira boshlagan bo‘ladi. Shu bois mavzuni oddiy, tushunarli va qiziqarli usullar orqali tushuntirish lozim. Ot mavzusini tushuntirishdan oldin o‘quvchilarga savod o‘rgatish, so‘z va gap tuzish, narsalar nomini o‘rganish va nutqni rivojlantirish mashqlari o‘rgatiladi. Shundan so‘ng ular ot tushunchasini osonroq anglab oladi.

Darsni o‘quvchilarga tushunarli bo‘lgan usulda boshlash kerak. Masalan, o‘quvchilarga bu nima? Yoki bu kim?, sinf xonamizda nimalar bor? degan savollar bersa bo‘ladi. O‘quvchilar to‘liq javob qaytargandan so‘ngina sekin mavzu tushuntirila boshlanadi. Masalan, bu kim? deb o‘qituvchi savol beradi. O‘quvchi esa bu Alisher, yoki Bobur deb javob qaytaradi. Ustoz Alisher odam ekanligini va u kim sorog‘iga javob bo‘lishini aytadi. Oson narsalardan boshlab murakkablashadi. Agar o‘quvchilarga ot so‘z turkumi haqida dastlabki tushunchalarni bermasdan shoshqoloqlik qilsa, yomon oqibatlarga olib keladi. O‘quvchilar bu mavzuni tushunishlari murakkablashadi. Ot mavzusini 1-sinflarga tushuntirishda jonli muloqot, amaliy mashqlar va vizual vositalardan foydalanish eng samarali usul hisoblanadi. Ot mavzusini tushuntirishda eng asosiy narsalardan biri bu- mavzuni hayotiy misollar, ko‘rgazmali materiallar orqali yetkazish muhimdir. Bolalar hali grammatik qoidalar haqida chuqur tushunchaga ega emaslar. Lekin hayotdagi ko‘p narsalarning nomlarini yaxshi bilishadi. Shu sababdan bu mavzuni o‘quvchilarga hayotiy tajribasiga asoslangan holda tashkil etish muhim. O‘quvchilar bilgan so‘zlardan gaplar tuzishadi. O‘qituvchi esa ular tuzgan gaplardan ot mavzusini tushuntirishi mumkin. Ana o‘shanda

o‘quvchilar mavzuni yaxshroq anglab yetishadi. Ot- odam, hayvon, buyum, joy nomini bildiradigan so‘z deb ta’rif bersa yanada tushunarli bo‘ladi. Masalan:

Odamlar: ona, ota, buvi...

Hayvonlar: mushuk, kuchuk...

Buyumlar: kitob, qalam...

Bunda oson so‘zlardan foydalanish kerak.

O‘yinlar va mashqlar ham juda samarali ish beradi.

“Kim?” va “Nima?” o‘yini

Bu o‘yin boshlang‘ich sinflar uchun mo‘ljallangan interaktiv o‘yin bo‘lib, unda o‘quvchilar narsa va jonli mavjudotlarni farqlashni o‘rganadilar. O‘yin qoidalari:

- O‘qituvchi “Kim?” yoki “Nima?” deb savol beradi.
- O‘quvchilar ushbu savolga mos keladigan javoblarni aytishadi.

Agar “Kim?” deb so‘ralsa, inson yoki hayvon nomlari aytildi (masalan: o‘qituvchi, shifokor, mushuk).

Agar “Nima?” deb so‘ralsa, jonsiz narsalar yoki tushunchalar aytildi (masalan: quyosh, kitob, gul).

- Javoblar to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligi muhokama qilinadi va to‘g‘ri javoblar tasdiqlanadi.

Afzalliklari:

- Mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi. O‘quvchilar jonli va jonsiz narsalarni farqlashni o‘rganishadi.
- So‘z boyligini oshiradi. Turli kasblar, hayvonlar, va buyumlar nomlarini eslab qolishadi.
- Diqqat va tezkorlikni oshiradi. Tez va to‘g‘ri javob berishga harakat qilishadi.
- Interaktiv va qiziqarli o‘yindir. O‘yin shaklida o‘tkazilgani uchun o‘quvchilar faol ishtirok etadi.
- O‘quvchilarning fikrlash doirasini kengaytiradi. Yangi tushunchalarni o‘zlashtirishga yordam beradi.
- Dars jarayonlarini jonlantiradi. Boshlang‘ich sinflarda darslarni qiziqarli va samarali o‘tishga yordam beradi.

Shuningdek, bu o‘yin jamoaviy ishslash va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Natijada, o‘quvchilarning bilim olishi yanada samarali va zavqli bo‘lib, dars jarayoni jonlanadi. Shu sababli boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari ushbu metodni darslarida muntazam qo‘llashlari tavsiya etiladi.

Xulosa:

1-sinflarda ot mavzusini qiziqarli va tushunarli usullar bilan o‘rgatish orqali o‘quvchilarning lug‘aviy zahirasi kengayadi, fikrlash qobiliyati rivojlanadi. Mavzuni hayotiy misollar bilan bog‘lab tushuntirish o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi va nutqini ravonlashtiradi. Shu bois, ot mavzusini o‘qitishda ta’limiy innovatsion metodlardan foydalanish dars samaradorligini oshirishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov B., Yo‘ldoshev A. "Ona tili" (1-sinf, darslik). - Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, 2023.
2. K. Qosimoval. S.Matchonov, X. G‘ulomova, Sh. Yo‘ldosheva, Sh. Sariyev. Ona tili o‘qitish metodikasi (Boshlang‘ich ta ‘lim fakulteti talabalari uchun darslik): — T.: «NOSHIR», - 2009.
3. A. G‘ulomov. Ona tili o‘qitish prinsiplari va metodlari. -T. 2009. "O‘qituvchi".